

IV - VI


do'ss

26 - 50

2

ket 29, 32

Kuch - bilim va tafakkurda



Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 6-aprel, shanba № 26 (9195)




ENLIGHTENMENT

XALQ ZIYOLILARI GAZETASI

معرفت

**"Besh ming yillik
yo'Idoshimsan, do'mbiram!"**

9-aprel –
Amir Temur
tavalludi kuni



Baxshili el botirdir

**Adolat va xolislik
asosiy mezonimiz bo'lsin**

7

Besh tashabbus

yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga chorlamoqda



Kichik tuhfa – katta foyda

"Besh ming yillik yo'Idoshimsan, do'mbiram!"

Termiz shahrida o'tkazilayotgan I Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ishtirokchilarining dil so'zlari

Shopo'lat SHAYDULLAYEV,
tarix fanlari doktori, professor:

— Biz, o'zbek xalqi har qancha faxlansak arziyidigan, baxshilarimiz butun boshili dostonlar bag'ishlasa, sira kam bo'lmyidigan bir ma'lumotni aytib o'tmoqchiman. Men arxeologman. Yaqinda Sherobod tumani hududidagi Jarqo'ton shahristonidan 4500 yillik do'mbira haykali topildi. Bu kabi yodgorlik Turkmaniston va Rossiyaning Oltoy o'lkasidan ham topilgan. 4500 yil avvalgi davrni tasavvur etib ko'ring. U davrda beri qanchadan-qancha saltanatlari tarix sahnasi kelmadidi. Qanchadan-qanchasi barbob bo'lmasdi. Ne-ne nomlar unut bo'ldi. Ammo xalqning chinakam mulki bo'lgan do'mbira omon qoldi. Qariyb 5000 yil avval ilk do'mbirani yasab chalgan baxshi bugungi biz nishonlayotgan festivalga kelib qolsa, nima bo'lar edi? Shubhasiz, bizdan rozi bo'lgan va ko'p quvongan bo'lar edi.

Arxeologik qazishmalar chog'iда nafaqat do'mbirna, balki nay, chitor kabi cholg'u sozleri ham topilgan. Birgina misol sifatida Termiz arxeologik muzeysida saqlanayotgan ajoyib topilmani aytishimiz mumkin. Ucta cholg'u chalib turgan ma'budsak aks ettirilgan bu yaxlit toshning yoshi bir necha ming yillarga borib taqaladi.

Ulijan BOYBO'SINOVA,
qozog'istonlik baxshi:

— Oqinining tomiridagi qoni xuddi ko'klamgi selday gupurib turishi kerak. Bo'limasa, qo'lidagi quv og'och — do'mbirasi unga bo'ysunmaydi. Dilidagi tiliga ko'chmay qoladi. Bunday oqin oqmay, armonda ketadi.

Men qo'shi O'zbekistonda tashkil etilgan bu ulug' tadbirga kelganidan xursand bo'ldim. Buning Qozog'istonda ham baxshichilikka juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bu yumushning ulug'ligi ham, bizning xursandchiligidan sababi ham shundaki, baxshilarining xalqaro darajada festivali tashkil etilganidir. Bugun butun dunyodagi san'at va adabiyotsevar xalqlarning nigoji O'zbekistonga turmulgan. Qardosh o'zbek xalqining bu bayrami bizni ham quvontirib yubordi.

Men bu bayramga katta tayyorgarlik

bilan keldim. Xudo xohlasa, o'zlarigiz guvohi bo'lasizlar, natija yomon bo'lmaydi.

Alirozi SULAYMONI,
musiqa fanlari doktori,
Eron xalq baxshisi:

— Soz va ovoz jo'rligida paydo bo'ladigan adapib asarlari jahon san'atida ham o'ziga xos o'in tutadi. Baxshichilik san'ati shu sababli ham juda katta ahamiyatiga ega. Bizning fors san'atida baxshichilikning orni katta. Boshqa cholg'us asobolari bilan kuylanadigan qo'shiqlar, doston yoki termalar biror-bir shoir tomonidan oldindan yozib berilsa, baxshi esa, ming yillarki, o'zi matn yaratib, o'zi uning kuyini topadi, o'zi ijar etadi. Jahon san'atida bunday hodisa juda kam.

Antik adapbiyotda dostonlar yaratgan Gomeri barchamiz bilamiz. Gomer arfa chalib, o'zining mashhur dostonlari kuylaganligi haqida afsonalar, tarixiy dalillar mavjud. Ammo bugungi festivalda men o'zim uchun juda ko'p Gomerlarni kashf etaman, deb o'yalyaman. Yurtingizda ming-ming yillar avval yaratilgan juda katta eposlar mavjud. Ularning tub ildizi o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy tarixiga bog'lanib ketgan.

Bu tarix bilan har qancha faxrlansangiz arziydi.

Azim QO'LONBOYEV,
Turkmanistonda xizmat
ko'rsatgan baxshi:

— Ulug' Jayhunning yoqasida yashab, beadoq kengliklari ko'rib, ularidan kuch olib yurgan odam bolasi borki, daryoning shovuridan, sahroning shamollaridan ilhom oladi. Bu ilhom odamzodning ko'nglidagi g'uborlari ketkizadi. O'zbek-u turkman o'z dardini, quvonchini shuytib kuyga soladi, o'zligini shuytib namoyon qiladi. Xalqlarimiz ichidan yetishib chiqqan baxshi zoti borki, Go'ro'g'li siyosiga murojaat qiladi. Turkman elining afsonaviy qahramoni Go'ro'g'li sulton, uning o'g'li Avazxon va boshqalar haqida, xususan, o'zbek baxshilarini ham juda uzoq zamonalardan buyon dostonlar kuylab keladilar.

Bu ham bo'lsa san'atning naqadar katta qadratga egaligini, sarhad bilmas buyuk

to'lqin ekanini ko'rsatadi.

Bizning Ashxobod konservatoriymida alohida "Baxshichilik" kafedrasi bor. O'zim ham shu dargohna faoliyat yuritaman. Bu Kafedraning asosiy vazifalaridan biri xalqimizning bag'rida yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan noyob asarlarni, dostonlarni yig'ib olish, yaratishdir.

Ora baxshi UMIROV,
O'zbekiston xalq baxshisi:

— Mana, Xudonning davlatidan 86 yoshni to'ldirib, 87 ga ketayman. Otam el kezgan Umir baxshi "Alpomish"ni to'qqiz kechakunduz aytib murodiga yetkazgan edi. O'sha zamonalardan beri do'mbirna bizning uyda juda katta, qo'rg'onday narsa hisoblangan, baxshichilik qondan qonga o'tdi, do'mbirna otaning qo'lidan bolaniling qo'liga o'tib kelyapti.

Ming-ming shukrona bilan aytishimiz kerak: bugungi kundagidagi zamon hech bi baxshiga nasib qilмаган. Baxshini "xalq dashmani"ga chiqarib, uning bolalarini maktabdan qubiv, el ichida yonnotliq qilgan kunlami ham ko'rdik.

1971-yili meni partiyadan o'chirishidagi. Lekin urushdan oldindi va keyingi yillarda qatq'on bo'lib, Sibirlerda yo'q bo'lib ketgan bobo baxshilarimizning taqdirdini o'ylab, shu kuniimga ham shurk qilganman. Ishimdan ham ayrıldim. Maktabda o'qituvchi edi. Odamlarning menga achinib qaraganlari ham bo'ldi, kulgurlari ham bo'ldi. Lekin sabr qidim. O'sha payllarda ham meni do'mbiram — e'tiqodim tashlab ketmadi. El el-da. Yaxshiyam bor, yomon ham. Bir Xudo bergan odamlar to'y qilar bo'lsa, meni qorong'i tushgandam so'ng to'yxonaga boshlab borib, ustimga chopon yopib kuzatganlari ham bo'ldi.

Bugungi festivalning daragi chiqqandan beri prezidentimizning qarori chiqqandan buyon o'zimga sig'may yuribman. Mana, baxshilar maktabi tuzildi. Endi katta dunyoviy festival bo'yapti. Endi, bizi baxshilarining qiladigan, hisob beradigan vaqtimiz bo'ldi. Bu ishlarning birinchisi dostonlari qayta tiklash. Doston aytdigan asl baxshilarini yetishtirish. Bu katta vazifa, ham burch.

To'y larda terma aytib, to'y egasini maqtab, pul terib yurgan do'mbirakashlar



ko'payib ketdi. Bular na doston biladi, na baxshichilikning odobini biladi. Bunday bodi bolalar baxshi degan nomning obro'sini tushirib yuborishdan boshqa ish qilmaydilar. Buyum katta masala.

Hosila RAHIMOVA,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan artist:

— Elimning baxshilarini — eliminating yaxshilar. Bugun boshlanayotgan festival biz san'atkorlarga juda katta ilhom manbayi, juda go'zal qo'shiqlarning yaralishiha turki bo'ladigan g'oyat barakali ijodi tadbirdir.

Men Surxon farzandini ekanimdan, ulug' baxshilariga egachi ekanimdan g'ururlanaman. O'ylab ko'rib bir narsaga amin bo'ldim. Men va men kabi surxondaylik san'atkorlarning bu zamindan yetishib chiqishi sira tasodif emas, balki biz baxshilarimizning boshqacharoq, zamonalayiroq ko'rinishdagidagi davomchilar ekanimiz.

Ammo bir narsani tan olib aytish kerakki, bu baxshilariday bo'lish qiyin, ochig'i ilojsiz. Ular biz aytdigan qo'shiqlardek qo'shiqdan besholtitasining matnini bir termasida aytib yuborishi mumkin. Shu sababli ham Prezidentimiz tomonidan tashkil etilgan bu festivalning ahamiyati juda katta.

Shodmonqul SALOM
yozib oldi.

Dunyo xalqlari kutayotgan festival

Shu kunlarda qadimiy va navqiron Termiz shahri ulkan shodiyona og'ushida. Xalqaro baxshichilik san'ati festivali munosabati bilan bu yerga qator xorijiy davlatlardan va mamlakatimizning turli hududlaridan baxshi-shoirlar, san'atkorlar, musiqa shunoslar, folklorshunos olimlar, OAV vakillari kelgan.

Milliy qadriyatlarimiz va nafis san'atimiz ulug'lanadigan mazkur festival barcha ishtirokchilari yuksak insoniy fazillar ulug'lanadigan xalq og'zaki ijodi durdonalaridan bahramand etisiga ruhlantirmoqda. O'za muxbirini ularning ayrimlari bilan suhbatlashdi.

Aleksey RODIN,
rassom (Rossiya):

— Rossiyadan bir qator ijodkorlar bilan Termiz shahriga keldik. Qadimi bu go'sha bilan dunyo ahli yaqindan tanishishi va tomosha qilishini istayman. Chunki Surxondayo insoniyatga beshik bo'lgan qadimgi hududlardan biri sifatida dunyoga ma'lum va mashhur. Tarixdan qadimiyyu bu vohada diniy bag'rikenglik keng quloch yoygan. Ilm-fan, madaniyat va

san'at, arxitektura rivojlangan.

O'tmishta hayotning turli sinovlariдан o'tgan bu shaharning maftunkor, betakror va o'tmishtan yug'unlashib ketgan zamoni yiqofasi menda katta taassurot uyg'otdi. Milliy urf-odat va an'alaringiz bilan yaqindan tanishish istagidaman. Fayzotpeva, budda ibodatxonasi, rus cherkovi va tarixiy qadamjolarga bormoqchiman. Bu taassurotlarimni o'z asarlarimda aks ettirib, dunyoga keng tarannum etaman.

Raxo LANGSEP,
ishtirokchi (Estoniya):

— O'zbekiston zaminida o'tayotgan nufuzli festivalda ishtirok etish baxtiga mayussar bo'layotganidan mannum. Dunyoda san'atning qadimiy turlari bo'yicha musiqa festivallari sanogli. Yurtingiz san'atning yana bir noyob turi — baxshichilik bo'yicha nufuzli anjumanga mezonlik qilmoqda. Bu dunyo xalqlari ko'padan buyon kutayotgan festivaldir.

Prezident Shakhat Mirziyoyev tashhabbusi bilan unutilib borayotgan qadimiy san'at turlarini asrab-avaylash va rivojlantirish yo'lida yana bir xayriy ishga qo'l urildi. Baxshichilik san'ati festivali tashkil etilgani dunyo xalqlarini baxshichilik va dostonchilik san'atining qadimiy namularini asrash va rivojlantirish,

xalqlar o'rtafigi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Termiz shahrida ushbu festivalga ko'tarinkin ruhda tayyorligi ko'rildigan. Aeroportda bizni yurtingiz jamoatchiligi, san'at va madaniyat namoyandalar, milliy libosdagi yigit-qizlar katta ehtirom bilan kutub oldi. O'yaymanki, bu ko'tarinkilik besh kun davom etadigan Xalqaro baxshichilik festivalida bizga yanada ilhom bag'ishlaydi.

Nanda MONTEIKO,
"The Holland Times"
gazetasini muxbirini
(Niderlandiya):

— O'zbekistonda o'tadigan festivallar dovrug'i dunyoga mashhur. "Sharq taronalar" musiqa festivali va Xalqaro maqom san'ati anjumani haqida maqolalar yozganman.

Bundan tashqari, musiqa festivallarida ekspert sifatida ishtirok etaman. Shu bois O'zbekiston elchixonasi Xalqaro baxshichilik san'ati festivaliga taklif etganida bajonidil rozi bo'ldim.

Sharq xalqlarining epik san'ati juda boy va rang-barang. O'tgan yili Ozarboyjonda bo'lgan festivalda qatnashib, O'zbekistonda san'atning noyob turlarini asrab-avaylash, uni targ'ib etish, yosh avlodni umtuz navolarga hurmat ruhida tarbiyalashga katta e'tibor ko'rsatilayotgani haqida eshitgan edim. Quvonarli, yurtingizga tashrifim davomida bularni o'z ko'zim bilan ko'rib, milliy san'atingiz durdonalaridan bahramand bo'lamjan.

O'za muxbirini
Matnazar ELMURODOV
yozib oldi.

2019-yil 6-aprel, № 26 (9195)

Shu kunlardagi dolzARB 5 ta tashabbusning muhimligini oddiy bir misoldan ham ko'rsa bo'ladi: Prezidentimizning maktablarga kitob berish bo'yicha tashabbusi natijasida shu qisqa vaqt ichida maktablarimiz 200 mingdan ortiq kitoblar bilan boyidi.

Maktablarga qo'shimcha daromad keltiradi

Vazir minbari

Yurdoshlarimiz tomonidan o'zi tahlis olgan maktabga kitoblar hadya qilish o'ziga xos trendga aylandi. Nafaqat rahbarlar, balki boshqa bitiruvchilar ham o'z maktablariga kitoblar olib borib beryapti.

Quvonarlisi, maktabga tashrif buyurib, maktab hayoti bilan tanishgan ko'pgina bitiruvchilarimiz o'z imkoniyati darajasida yana qator xayri ishlarni amalga oshirmoqda. Kimdir kompyuter olib bersa, yana kimdir ta'mirtalab sinfxonalarni ta'mirlab beryapti.

Shuningdek, Xalq ta'limi vazirligi maktab o'quvchilariga tavsiya etiladigan kitoblar ro'yxati loyihasini ishlab chiqib, muhokama qo'ydi. Barchani ushbu so'rovnoma ishtiroy etishga va kitoblarining ro'yxatini shakllantirishda yordam berishga taklif:

oshirishga keng yo'l ochishi zarur. Misol uchun:

Birinchi tashabbus bo'yicha: maktablardagi tadbirlar xonalaridan imkon boricha unumli foydalanib, turli xil madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish mumkin. Shu orqali farzandlarimizning ijodkorligi yanada rivojlanadi. Bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

Ikkinci tashabbus bo'yicha: maktab sport maydonchalaridan darsdan tashqari foydalanish va qo'shimcha pulli to'garaklar ochish imkoniyati bor. Nafaqat o'quvchilar, balki yon-atrofdagi yoshlarning ham sport bilan shug'ullanishiga qo'shimcha sharoit yaratiladi.

Uchinchi tashabbus bo'yicha:

Farzandlarimiz chinakam barkamol, yetuk va muvaffaqiyatl inson bo'lib yetishishini istasak, ularning bo'sh vaqt mazmunli o'tishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu sababli, 5 ta tashabbus barcha ota-onalarga qo'shimcha imkoniyat ham yaratadi.

etamiz: <https://bit.ly/2WLdLod>.

Prezidentimiz huzurida 5 ta tashabbus haqida batafsil muhokama bo'lib o'tdi. Muhokama davomida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ularni madaniyat va san'atga jahb etish, sportga qiziqirish, kitob o'qishga chorlash, axborot texnologiyalariga o'qitish va xotin-qizlarga ishchi o'rinalar yaratish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni tanqidiy muhokama etildi. Yig'ilishda yuqoridagi 5 ta tashabbusni amalga oshirishga yuzaki qaramay, joylarda aniq bir tuman misolda joriy qilib, o'rganib, keyin yanada kengroq joriy etish bo'yicha aniq takliflar tayyorlash topshirildi.

Farzandlarimiz chinakam barkamol, yetuk va muvaffaqiyatl inson bo'lib yetishishini istasak, ularning bo'sh vaqt mazmunli o'tishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu sababli, 5 ta tashabbus barcha ota-onalarga qo'shimcha imkoniyat ham yaratadi.

Maktablardagi Kuzatuv ken-gashlari maktab direktoriga ushbu yo'nalishdagi to'garaklar va tadbirlar yilga qo'yilishi bo'yicha vazifalarni belgilab, amalga

maktabdagagi kompyuter xonalaridarsdan keyin bo'sh yotmay, ulardan to'liq foydalanib, imkoniyat darajasida qo'shimcha xizmatlar ko'satish mumkin. Oddiy qiziqarli o'ynillardan tortib, dasturlash, foto va videoontaj kabi foydali ko'nalmalarini o'rganishgacha bo'lgan o'quv kurslari tashkil etish maqsadga muvofig.

To'rtinchi tashabbus bo'yicha: maktab kutubxonalarini kitoblar bilan boyib borgani sari undan ham o'quvchilar, ham o'sha mahalladagi aholi foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Beshinchi tashabbus bo'yicha: xotin-qizlar uchun yaratilayotgan qo'shimcha ishchi o'rinalarda (bu asosan tikuvalik korxonalariga to'g'ri kelyapti) o'quvchilarning kasbga tayyorgarligini yo'lgan qo'yish mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi tashabbuslarning maktablarda to'g'ri tashkil etilishi ta'lim muassasalariga budgetdan tashqari qo'shimcha daromad ham keltiradi. Uni ushbu tashabbuslarni joriy etuvchi xodimlarni qo'shimcha rag'batlantirishga ishlatsa bo'ladi.

Sherzod SHERMATOV,
Xalq ta'limi vaziri

Besh tashabbus

yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga chorlamoqda

Jamiyat taraqqiyotida, yurt, millat taqdirida o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligi, intellektual salohiyati muhim o'rinn tutadi. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustah-kam rivojlanishiga rxaxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir".

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliши bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomil-lashtirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bir qancha muhim hujjatlar qabul qilindi, amaliy ishlarni yo'lg'a qo'yildi, muayyan nataljalarga erishildi. Shunday bo'sha ham, bu boroda bajariladigan ishlarni himisha keng ko'lamlari bo'lib, o'z dolzarbligini saqlab qolaveradi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz rahbarligida 2019-yil 19-marta "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida" o'tkazilgan video-selektor yig'ilishida yoshlarning rivojlanishiga qaratilgan masalalar muhokama qilindi va sohalarga taalluqli 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Bular quyidagilar:

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr, va san'atning boshqa turlarida qiziqishlarini rivojlanishiga qaratilgan masalalar mas'ul qilindi va sohalarga taalluqli 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Bular quyidagilar:

Ikkinci tashabbus yoshlarning qiziqishini chiqqan buyuk allomalar haqida hikoya qiluvchi ixchamlashtirilgan matnlarni chop etish va audio-kitoblar tayyorlashni ta'minlash;

Uchinchi tashabbus anholi va yoshlar o'rtaida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish masalalar bo'yicha.

To'tinchi tashabbus anholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtaida kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalalar bo'yicha.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarning ish bilan ta'minlash ishlarni tizimli tashkil etish masalalar bo'yicha.

Mazkur tashabbuslarning yosh avlodni har tomonlama mukammal tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli va samarali o'tkazish ishlarni qamrab olgan bo'lib, tegishli sohalarni istiqro-kida amalga oshirib boriladi. Yig'ilishda har 5 ta tashabbusning maqsadi aniq belgilanib, ijo etuvchi sohalarga tegishli vazifalar yuklatildi.

ziyolilar orqali barcha turdag omaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng tashviqotini tashkil qilish;

4) Axborot va omaviy kommunikatsiyalar agentligi mas'ulligida Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita va

O'zbekiston musulmonlari idorasi bilan hamkorlikda jahon va o'zbek adabiyoti, tariximiz va qadriyatlarimiz bilan bog'liq sara asarlar, shuningdek, islam dini tarixi, islam dinining

Munosabat

ma'rifat markazi ham to'rinchi tashabbus — aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksal-

! Mazkur tashabbuslarning yosh avlodni har tomonlama mukammal tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli va samarali o'tkazish ishlarni qamrab olgan bo'lib, tegishli sohalarni istiqro-kida amalga oshirib boriladi. Yig'ilishda har bir tashabbusning maqsadi aniq belgilanib, ijo etuvchi sohalarga tegishli vazifalar yuklatildi.

asli mazmun-mohiyati va yurti-mizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar haqida hikoya qiluvchi ixchamlashtirilgan matnlarni chop etish va audio-kitoblar tayyorlashni ta'minlash;

5) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mas'ul tashkilot sifatida Yoshlar ittifoqi va Madaniyat vazirligi bilan birgalikda yoshlarning ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, ularni yet g'oyalar ta'siridan himoya qilish hamda kitobxonlikka keng jahb etishga qaratilgan ta'sirchan, tizimli, maqsadli va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Bugungi kunda mazkur vazifalarni ijobasi yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik yig'ilga qo'yilib, zarur chora-tadbirlarni belgilanib, taklif va tavsiyalar ishlarni chiqilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonida yosh avlodni tarbiyalash ishlarni bunday aniq va maqsadli yondashuv, tizimli va tartibli qat'iy munosabat barcha soha vakillarini, shuningdek, keng aholi qatlami, ayniqsa, yoshlarning yanada sergaklantirib, daxildorli hissi va mas'ulligini oshirmoqda. Oliy hamda ezuq maqsadlar sari bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda harakat qilish, o'zaro qol'lab-quvvatlash orqali yuqori nataljalarga erishish, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga undamoqda.

Feruza AZIMOVA,
Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi
bosh mutaxassisasi

Kitob — eng yaxshi sovg'a

A'llochilarga akademiklar sovg'asi

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyida yurtimizdagi taniqli ilm-fan namoyandalarini va o'quchilarining uchrashuvini bo'lib o'tdi. Tadbirda O'z FA akademiklari — Baxtiyor Ibrohimov, Abdulahad Jalilov, Mirziyod Mirsaidov, Hojimurod Kimsanboyev, Bakir Zaripov, litsey sobiq o'quchilarini — kimyo fanidagi xalqaro olimpiada va musobaqa-baqlari g'oliblari qatnashdi.

Yoshlar bilan o'tgan qizg'in O'qish davomida yuqori natijalarga erishganlarga akademiklarning kitoblari tortiq qilindi.

— Akademiklar bilan uchrashuv o'quchilarimiz

uchun niroyatda zarur va foydali, — deydi litsey direktori, professor Ortiboy Eshonkulov. — Sababi, olimplar bilan muloqot jarayonida yoshamning ilm-fanga, tadqiqotchilik faoliyatiga qiziqishi ortadi. Ilming hayotiy amaliyati, olimning jamiatidagi mavqeyi nechog'lik yuqori ekaniga guvoh bo'ladi. Shu bois ta'lum muassasamizda bunday ilmiy-ma'rifiy uchrashuvlarni

tez-tez o'tkazib turamiz. Bugungi uchrashuv natijasi o'laroq, o'quchilarimizning laboratoriya mashg'ulotlarini olib borishi uchun O'z FAgara qarashli ilmiy-tadqiqot institutlari laboratoriyasiga yo'llama berildi. Bu yosolar uchun niroyatda katta imkoniyat.

Rahimboy JUMANIYOZOVA,
Toshkent pediatriya
tibbiyot instituti
matbuot kotibi

O'qituvchi

nimani

o'ylaydi?

O'qituvchilar, ota-onalar loaqal bir oyda bir marta o'quchilarini kitob do'konini, kutubxonasi va teatrarga olib borishi lozim. Dunyoning go'zalligini his qilish teran tafsakkura bog'iqliq. Yaxshi fikrlash uchun yagona muolaja kitobdir.

Mansur YUNUS

O'quchilariningizni maqtab turibsizmi?! Buni odatga aylantiring. Faqat rag'bat o'quchining tirishqoqligi, mehnatkashligiga qaratilgan bo'lishi kerak. Uning shaxsini emas, xatti-harakatini, bajargan ishini maqtang. Boshqalar orasida maqtovning sababini aniq ifodalang. Faqat "sevimli" o'quchilariningizni maqtamang! Maqtov va rag'batlanishiga bolani to'g'ri tarbiyalashdagi nozik, ta'sirchan va muhim vositalidir.

Shahnoza AKRAMOVA

Sinfda 35 o'qurchi bo'lsa, ularning har biri bilan ishlashga 1 daqiqadan vaqt ketsa, 35 daqiqa tugadi deyavering. Aslini olganda, o'tilgan mayzuni so'rashga 7 daqiqa, yangi mayzu bayoniga 10, mustahkamlashga yana 10 daqiqa ajratilishi kerak.

Mehrison BOBOMURODOVA

40-45 daqiqa fikrlashga qachqasiga, hayot tashvishlarini ro'kach qilib, turli bahonalar topidan onalar, ishidan ortmaydigan otalarni har doimigidek ko'maysiz. O'tgan o'quv yili oxirida navbatdagi ota-onalar majlisini o'tkazdim. Yig'ilganlar 60 foizini tashkil etdi, xolos. Kelganlar ham majburlikdan, zo'rg'a qatnashayotganek tuyuldi.

Farida AXBORALIYEVA

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uchun shanba "O'zini o'zi rivojlantirish kuni" bo'lgani yaxshi bo'ldi. Endi o'qituvchilar o'z ustida mustaqil ishlaydi. Tadbir va davra suhbatlari, uchrashuvlarda faol qatnashadi, sayohatga chiqadi, kutubxonaga boradi, xillas, ma'naviy olamini boyitadi.

Dilnoza BOQIYEVA

Oliy ta'linda talabalarning nima kiyishi, sochini qanday turmaklashi, qayerda kim bilan yashashi nazorat qilinishiga o'rganib qolgan edik (garchi bu normal holat bo'lmasa-da). Endi talabalarning fikrashi nazorat qilinishiga nima deysiz? Talabalarning ijtimoiy tarmoqlarda ta'limga, ilmga oid bahslarda ishtirok etgani, fikr bildirgani, «layk» bosgani uchun ayrim OTMlар rahbariyati tomonidan siqunga olinishi, o'qishdan chetlashtirish bilan tahdid qilinishiga nima deysiz? Bu kelajakdagisi ilm-fan rivojiga bolta urish emasmi? Axir, ilmda yangilik fikr erkin bo'lsagina yaratilishi mumkin.

FAYLASUF

Kichik tuhfa — katta foyda

Uchko'rik tumanidagi 28-maktab tumanda ta'lum rus tilida olib boriladigan yagona ta'lum muassasasi hisoblanadi. Unga ilk poymevor qo'yilgan 1970-yildan beri bu dargohni bitirgallarning ko'pi elga taniqli insonlar bo'lib yetishdi.

Yaqinda o'quv maskanimizda "Maktabimga kitob hadya qilaman!" shiori ostida tashkil etilgan tadbirda ota-onalar, o'qituvchilar va o'quchilar ilmiy-ommabop, badiyi kitoblarni sovg'a qildi. Quvonlarisi, shu kuni maktabga sobiq bitiruvchilar ham kelib, o'zlarining sevimali kitoblarini o'quchilariga tuhfa etdi. Qo'qon shahar MIB boshlig'i, maktabning sobiq bitiruvchisi Jasurbek Yo'ldoshev kutubxonaga rus tilidagi 30 ta kitob berdi.

La'lixon SIDDIQOVA,
shu maktab direktorining
o'rinnbosari

durdona asarlaridan Lev Tolstoyning "Avliyo Sergey" kitobini sovg'a qilaman. Ishonamanki, mutolaaga oshno bo'lib, yurt ravnaqiga munosib hissa qo'shasiz.

Aziza BOYMURODOVA,
Kattaqo'rg'on tumanidagi
28-maktab direktori

Yashnobod tumanidagi 30-maktabda "Bir farzandoga uch kitob" shiori ostida noshirlik mahsulotlari, rang-barang kitoblar savdo-ko'rgazmasi tashkil etildi.



O'quchilarida kitob mutolaasiga ishtiyoq uyg'otish maqsadida o'tkazilgan tadbirda ota-onalar bolalari yoshiga mos kitoblar xarid qildi. Qolaversa, maktab pedagogik jamoasi kutubxonaga bir donadan badiyi asar sovg'a qildi.

Maktabning sobiq o'quchilarini Oly Majlis huzuridagi jamaot fondi direktori Otobek Husanov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat bosh-qarushi akademiyasi xodimi Abdumalik Yoqubov 60 ga yaqin kitob tuhfa qildi.

Qirmiz HOTAMOVA,
shu maktab direktori

Yakkasaroy tumanidagi 91-IDUMdag'i kitoblar yarmarkasida ota-onalar farzandiga kitob tuhfa etdi.

— Farzandining kelajagi haqida qayg'urgan ota-onasi borki, jigarbandining



qoliga avvalo kitob tutqazadi, — deydi 91-IDUM direktori Aziza Temirova. — Ushbu tadbir doirasida mutolaan kunlari tashkil etib, o'qituvchilar boshchiliigidan bolalar yozuvchilarining o'quchilar yoshi va qiziqishiga mos asarlarini birligida mutolaan qildik. Quvonlarisi, kutubxonamida yuzlab nomdag'i adabiyotlar jamg'arilish, ushu xayrli tashabbusga maktabimizning xorijdag'i sobiq o'quchilar ham hissa qo'shdii.



Shuningdek, Chilonzor tumanidagi 90-maktabda "Farzandimga kitob sovg'a qilaman!" aksiyasi doirasida ta'lum muassasasining kutubxonasiga 30 nomdag'i badiyi adabiyot sovg'a qildi. Maktab direktori Marhamat Ahmedova o'quv dargohining sobiq o'quchilariga ziyo maskaniga beminnat tuhfasi uchun minnatdorlik bildirdi.

Javodxon BURHONOV,
jurnalist

Kattaqo'rg'on tumanidagi 28-maktab o'quchilar erta tongdan ular bilan suhbatlashib, bolalik xotiralarini bilan o'troqlashgani kelgan maktabning sobiq o'quchisi, tuman XTB ma'naviy-axloqiy tarbiya sho'basi rahbari Toshmamat Otamurodovning tashrifidan xursand bo'ldi.

— Badiyi kitoblar o'quchining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, dunyoqarashini o'stirishda muhim o'rinn egallaydi, — deydi T.Otamurodov. — Hayotim davomida ustozlarim o'g'iti, maslahatlariga amin qilib, kitobga do'st bo'lib kam bo'lmasdim. Sizga o'zim yaxshi ko'rib qayta-qayta o'qigan "Temur tuzuklari", Tohir Malikning "Somon yo'li elchilar", O'tkir Hoshimovning "Ikki eshih orasi", ardoqlig shoirimiz Muhammad Yusufning "Elimda alyorim qolur", "Biz baxti bo'lamiz", "Quyosha qarab oqcan suv", atoqli shoirha Zulfyaning "Yana bahor keldi, Sizni so'roqlab...", jahon adabiyotining

Harbiylar maktabda

O'z yurtiga sadoqat — vatnparvarlik nishonasidir. Jaholat g'aflatga, loqaydlikka, beparvollikka yo'li ochadi. Natijada Vatan qismatiga daxidorlik tuy'usi so'na boshlaydi. Har xil tahidlarga beparvo bo'limaslik, ularga qarshi ma'rifat va bilim bilan javob bera olish chinakam jasoratdir.

Olmazor tumanidagi 326-maktab o'quchilarini uchun "Jaholatga qarshi

ma'lifat" mavzusida tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonligi, el ardog'idagi san'atkorlar, O'zbek Milliy akademik drama teatri aktiyorlari qatnashdi. Tadbirda mavzuga oid videolavha, o'quchilar tomonidan tayyorlangan sahna ko'rinishi, Milliy gvardiya harbiy xizmat-chilarining ko'rgazmali chiqishlari namoyish etildi.

Tadbirda odam savdosi — hudud, chegara va millat tanlamaydigan mudish, og'ir jinoyat ekanligi, ko'plab salbiy oqibatlarga olib kelayotgani, terrorizm, giyowandlik, qurol-yaroq, odam savdosi, missionerlik kabi illatlar bugungi kunda ko'plab davlatlar va xalqlarni jiddiy xavotirga solayotgani ta'kidlab o'tildi.

MUXBIRIMIZ

Baxshili el botirdir

O'zbekistondagina emas, balki Tojikiston, Turkmanistondan ham nom qozongan Esan baxshi, Nazar baxshi, Mardonqul baxshi, Boymurod baxshilarning duosini olgan va o'zi ham Surxondaryo baxshilarining taniqi ustoz Chorsha baxshi Rahmatullayev(1932—2002)dir. Chorsha baxshining baxshilar ta'rifida kuylangan "Baxshining" termasi ham jo'shqin aytiganligi, sermaz-munligi, g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammalligi bilan e'tiborni jaib etadi.

Termada dastlab baxshili elning botiriligi ta'kidlanadi. Unda, bola boshdan deganidek, baxshi ham tabiiy iste'dodga ega, yoshligidan tarbiya topgan bo'lishi kerak, degan qarash ilgari suriladi. Yaxshi baxshi o'zini o'n yoshidayoq ko'rsata oladi. Shuning uchun ham yaxshi tarbiya ko'rgan baxshilar oqar daryoga o'xshaydi, uni el olqishlab, yonidan ajralmaydigan bo'ladi, o'zi ham kuylaganda tolmas bo'ladi.


Shoirning fikricha, bunday baxshining so'z oqimi oshib boradi, sira uzilmaydi, u kuylaganda tinglovchilar o'z g'am-tashvishlarini unutadi, to qangacha kuylasa ham kuylovchilar davrasи buzilmaydi.

Baxshi termasida baxshining bulbuligo'yoli mahoratiga to'xtaladi. Uning xonishi tonshin eritishga qodir, so'zlarini selday mayj uradi, u kuylaganda, tumonat odam jam bo'ladi. Shoир shu munosabat bilan bir qator okkazional so'zlar qo'llaydi. Bular qofiyada kelgan "suyillab", "jiyilib", "iyilib", "quyilib" kabi so'zlardir:

Xonishidan tosh eriydi suyillab,
Tumonat el qo'shiq tinglar jiyilib.
Doston tinglab, ko'zin yoshlar iyilib,
Mavjulanadi so'zi selday quyilib,
Bulbuli go'yodir tili baxshining.

Termada baxshining o'z xizmati bilan el dardiga darmon bo'lishi, do'stni shod, dushmani noshod etishi, to'g'ri so'zli ekanligi kabi fazilatlari ham alohida qayd etib o'tiladi. Shuning uchun ham u el shoир, eliga mehr qo'yan baxshidir:

Shod aylaydi el-u ulus, do'stini,
Nokslardan so'z bilan olar qasdini.
To'g'ri so'z bilan shilar uning
po'stini,



Hazari yo'q, aytar gapning rostini,
Xalqiga mehrlı dili baxshining.

Termada ta'rif etilishicha, baxshili elda xavf-xatar bo'lmaydi. Baxshi yoshlar ongini uyg'otadi. Yaxshi baxshilar har qadamda terma, doston yaratib, chechanlikdan elni og'ziga qaratadi. Uning chechanligi savr jalasiga o'xshaydi. Eng muhim, u yolg'onni aytmaydi, to'g'ri so'zidan qaytmaydi:

Baxshilarning oti, taxallusi ko'p,
G'animlarga har bir so'zi otgan to'p.
Savr jalasiday hamisha sergap,
Ikki kunda bir dostoni bo'lmas sop.
Ma'quil so'zlab, hech aytmaydi
yolg'on gap,
Qo'shiq bilan sog'lom tani
baxshining.

Baxshilarning el-yurtda nomi har xil ataladi. Hofiz, baxshi, shoир, tong qushi, sozanda, juyrig, yuzboshi va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday nomlarni eshitib, baxshining o'zi ham faxrlanadi, ko'ngli "chechak ochib" yashnaydi. Baxshining qaynab-toshishi "bahor kelib, qir-adirni yashnatgan" ga o'xshaydi. So'z boyligi behisob, "har sapardan qaytganda" bir doston tayyor. U so'zga muhtoj emas, birovning bisotidan izlamaydi. Mardligi bor, davoligi bor:

Muhtoj bo'lib so'z izlamas birovdan,
Mardona, qo'rqmaydi toshqindan,
suvdan.
Yuz o'girmas qor-u yomg'ir,
qirovdan,

Dono so'zlab, g'olib sinov, garovdan,
Tog'day bardoshli beli baxshining.

Termada baxshining mehnatkashligi, halol mehnat bilan yashab, eliga naf keltirishi ham uning shaxsiy insoniy fazilatlaridan biri sifatida ko'rsatilgan. Uni "xalq ishidan ayamay bor kuchini, "tekin emas achobi bilan chuchchini", deb maqtaydi. Shuningdek, baxshi molga, davlatga ham hirs qo'yan kishilardan emas. U kuylarkan, xalqdan madad oladi. Uning bor bisoti, "boylik, moli" qo'shiq'i, xolos. Uning "ezgu kuylari ona allasi"dek xushyoqim, "jonga oziq har so'zining ma'nos". Shuning uchun "tilida bor asal-boli baxshining", deb hurmat qiladi, so'zidan xastalar shifo topadi:

Eli-yurtin xush, choq qilish tilagi,
Ustozlar so'ziga soqchi qulog'i.
Loladay qizibar ikki yonog'i,
Terma, dostonining yo'qdir sanog'i.
Poyonsizdir, tugamaydi adog'i,
Charchab tolmas, duldu lili
baxshining.

Baxshiga mavzu ko'p: tog'da pistalar, yog'ochsoz, do'mbira yasagan ustalar va boshqalar. U xalqiga doimo "yangi guldastalar" tutadi. Bu qo'shiqlariga o'zi kuy bastalaydi. Demak, u doimo izlanish, intilishda. Shoир shu o'rinda ustoz baxshilardan o'mak olishga alohida da'vat etadi:

Ustoz oqinlardi qo'msaganda dil,
Yetti iqlim kezib sayragay bulbul.
Ko'z o'ngimda bo'zlaydi Mardonqul,

Sozni ushlab, kuylab o'tai elma-el.
Yurt-elatlar mehmon qilib
qo'ima-qo'i,
Ona sutday yegan noni baxshining.

Shoir ana shu baxshilarning aytgani elga munosib, "loyiq" bo'lganligini, har so'zidan xaloyiq ziyo olganini ta'kidlaydi, ana shu ustozlarga munosib bo'lish, ular merosini elga yoyish dardi bilan yonadi va boshqalarni ham shunga da'vat etadi. So'ogra shoир baxshilarning ham turi ko'pligi, haqiqiy baxshi chin so'zlashini qayd etadi. Baxshining shaxsisi sifatlari ham uning ko'rikidir:

Baxshilar pok, kamtarin,
sira ig'vagar bo'imas,
Ko'ngli qora, makkor,
ichi tor bo'imas.
Faqir, rostgo'y, ko'ngli toza,
kir bo'imas,
Ig'vo, yolg'onning ipi chirik,
uzilsa, ulanmas,
Vaqt kelib, ahvoli voy ul kishining.

Termaning oxirida shoир yosh baxshilarga nasihat qilib, ustozlardan o'mak olishga da'vat etadi:

O'tgan bobo ustozlarda balqib qol,
Zo'r dostonchi baxshi bo'lib
dovruq sol.
Ustozingga dog' tekizma, olqish ol,
O'rgan, izlan, davralarda bo'ima lol.
Yosh baxshilar, omad sizga,
omon bo'i,
Anglab, bilib, baxt berar
eli baxshining.

Shoir baxshilarning shaxsisi sifatlari elga namunali bo'lishini yoshlarga yana bir bor eslatadi:

O'zingni maqtama,
mag'rur bo'p ketma,
Seni el maqtab, ta'rif qilsin,
shuni unutmata.
Hurmat-obro'yingni bir pulga sotma,
Bir ketgan qaytmaydi, izini kutma.
Chorsha baxshi, haqiqat
yo'lidan qaytma,
Parvoyi charxi falaklarga bu
so'zni aytma,
Yashnab turar ko'ngil
guli baxshining.

Chorsha baxshining ushbu termasi baxshilar hayoti, faoliyati, quvvayı hofizi, turmushi, shaxsisi sifatlari yuzasidan keng tasvirlarga boyidir.

Ro'ziqul MUSTAFOQULOV,
TerDU dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

o'ren tutadi. Assotsiatsiya 30 yildan buyon temuriylar merosini tadqiq etish ishlarni olib boradi va sulola tarixini keng targ'ib etib kelmoqda. Assotsiatsiya faoliyati tufayli Parijda dunyoda yagona «Temuriylar» jurnali nashr etilmoqda.

Amir Temuring tarixiy xizmatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixida birinchi marta yagona geosiyosi makonda ekanliklarini his etdi. Bu savdogarlar, xalqlar hech qanday to's-qiniksiz harakat qiladigan yangi yo'llarning ochilishida ham namoyon bo'ldi.

Mavluda XOLBO'TAYEVA,
O'Z FA Temuriylar tarixi
davlat muzeyi ekskursovodi,
katta ilmiy xodim,
Abdulhamid MUTALLIYEV,
muzey bosh lektori

Osiyo va Yevropani bog'ladı

Amir Temur qudratli davlatning hukmdori sifatida
G'arbda juda yuksak obro'ga ega bo'lgan. Yevropa qirollari
uni chuqur ehtirom bilan «eng shavkatli va eng g'olib podshoh Temurbek», deganlar.

Kichik Osiyoda bo'lgan vaqtida Sohibqiron Fransiya qiroli Sharl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan olib borgan diplomatik yozishmalarida G'arb mamlakatlari bilan mutazam savdo aloqalari o'natish istagini bildirgan. Ularni savdo erkinligi bilan ta'minlash ikki tomonidan qo'yilgan muhim shartlardan biri edi.

Amir Temur Kastiliya va Fransiya bilan elchilar orqali munosabat o'natgan, Karl VI bilan yozishmalar olib borgan.

Sultoniyah shahri ruhoniyalari boshlig'i arxiyepiskop Janning Parijda bo'lishi, shuningdek, Rui Gonsales de Klavixoning sayohati davlatlararo munosabatlarda yangi bosqich bo'ldi va undan arxiyepiskop Janning «Esdaliklar»i hamda Klavixoning yo'l xotiralarini singari ko'plab yozma yodgorliklar qoldi.

Amir Temur sultanati tarixi G'arbning qator davlatlari — AQSh, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va boshqa davlatlarda yaxshi

o'rnatilgan, ko'plab kitoblar nashr etilgan. «Temur tuzuklari» Angliya, Daniya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlar kutubxonalarida mavjud. G'arb tillariga tarijmlar qilingan.

Amir Temur haqidagi o'rta asrlarga oid ko'plab yozma manbalar Yevropa tillarida bosilib chiqqan. Yetakchi mualiflar orasida Sharafuddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomi, Ibn Arabshoh, Hofizi Abro', Abdurazzoq Samarcandiy, Ahmad Fasihiy va boshqalarning asarlari bor.

G'arbiy Yevropada, birinchi navbatda, fransuz tadqiqotchilar tomonidan Amir Temur va temuriylar to'g'risida ko'plab monografiya va

maqolalar yozilib, nashr etilgan. Ularda Amir Temurning davlat ijtimoiy-siyosiy qurilishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, ma'muriy tizim, harbiy yurishlar, diplomatiya, din, fan, madaniyat, san'at sohasidagi ko'p qirrali faoliyati yoritilgan. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, jahon sharqshunosligida mustaqil ilmiy yo'nalish — «Temurshunoslik» shakllandi.

Temuriylar tarixi davlat muzeysi Fransiyadagi Temuriylar tarixi va san'atini o'rganish Assotsiatsiyasi tashkil topganining 30 yilligiga bag'ishlangan xalqaro tadbir-larga tayyorgarlik ko'rilmoxda. Fransuz olimlarining tadqiqtolar fanda katta va muhim

Sohibqiron o'gitlari alifboda

9-aprel — buyuk davlat arbobi, sarkarda Amir Temur tavallud topgan kun munosabati bilan "Temur tuzuklari" kitobining mazmun-mohiyatini o'quvchi-yoshlarga chuqur tushuntirish bo'yicha amaliy-nazariy mashg'ulotlar o'tkazildi. Tajribamidan kelib chiqib, "Alifbo" ketma-ketligida Amir Temur o'gitlariidan yig'ib chiqdim. Tarix darslarida, tarbiyaviy soatlarda, sinfdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlerda undan foydalaniш mumkin. (1992-yili "Navroz" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Amir Temur o'gitlari" kitobidan foydalaniш.)



Azm-u jazm bilan ish tutdim. Biron ishni qilishga qasd qilgan bo'lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'llimni tortmadim.

Boshga qilich kelsa-da, rost so'zla. Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur.

Eng baland minora ham yerdan ko'tarilgai.

Filning dumi bo'lguncha, chumolining boshi bo'l.

Garchi yaxshi so'zni hammadan eshitish zarur bo'lsa ham, lekin boshqalar so'zda, saltanat ishlarida podshoхha sherik, yoxud undan ustun bo'lmasisliklari shart.

Har mamlakat va diyor sayohat-chilari-yu musofirlarining boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib tirdilar. Har bir mamlakat-uy diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular o'shal mamlakatlarda yashovchi kishilarining hol-ahvoli, turish-turmushlari haqidagi menga xabar olib kelsinlar. Har bir mamlakat hukmdorining o'z raiyatiga qanday muomala-yu munosabatda ekanligini aniqlasinslar.

Ishbilalarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.

Jahonni idora etguvchi qadratli nabiralarimga ma'lum bo'lsinkim, Tangri taolo dargohidan umidim shulki, ko'plab farzandlarim, avlodim saltanat taxtiga o'tirib, mamlakatlarni idora etgaya.

Kurashib erishilmagan g'alaba g'alaba emas.

Lochinning ucharg'a madori kelmasa, chumchugqa masxara.

Menda biron kimsaning haqi bo'lsa, haqini hech vaqt unutmadiм. Biron kimsa bilan tanishgan bo'lsam, uni hech vaqt nazaramdan qoldirmadiм.

Nomusiz hayotdan nomusli o'lim yaxshi.

Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim.

Podshoh har ishda o'zi hukm chiqarsin, toki hech kim uninig hukmiga aralashib, o'zgartira olmasin.

Dilshod SHOQULOV,
Kogon tumanidagi
8-maktab direktorining
ma'naviy-ma'rifiy ishlari
bo'yicha o'rinosari

4-5-sinf "Ona tili" hamda 5-sinf "O'zbek tili" (ta'lim rus tilida olib boriladigan mакtablar uchun) darsliklarida kelishiklar mavzusi berilgan. Men kelishiklar va ularning qo'shimchalarini o'quvchilarga oson tushuntirish metodini taysiya qilmoqchiman.

Sinab ko'ring

"Quvnoq gymnastika" deb nomlangan bu metodni qo'llashdan asosiy maqsad — harakatli o'yinlar orqali o'quvchilarga yangi bilim berish, fikrlash qobiliyatini o'stirish, darsga nisbatan motivatsiya uyg'otish, mavzuni oson tushuntirishdan iborat. "Quvnoq gymnastika" o'yinini o'tkazish uchun o'quvchilar o'nidan turadi.

1. Bosh kelishik — o'quvchilar ikki qo'llarini birlashtirib, boshlarining orqa tomoniga qo'yadilar.

tiruvchi o'quvchiga ham gymnastikamiz juda yoqadi va ikki-uch takrorlashdayoq kelishiklarni yodlab oladi.

Kelishik qo'shimchalarini ham shu tarzda o'rganamiz:

1. yo'q.
2. – ning.
3. – ni.
4. – ga (-ka, -qa).
5. – da.
6. – dan.

Qo'shimchalarni aytishda ham

"Quvnoq gymnastika"

2. Qaratqich kelishigi — o'quvchilar o'ng va chap tomoniga burlilib qaraydilar.

3. Tushum kelishigi — o'quvchilar "tushadilar", ya'ni o'tiradilar.

4. Jo'nalish kelishigi — qo'llarini oldinga yo'naltiradilar.

5. O'rin-payt kelishigi — ikkala qo'llarining ko'sratikch barmog'i bilan o'tirgan o'rinnarini ko'sratadilar.

6. Chiqish kelishigi — o'quvchilar "chiqadilar", ya'ni o'rinnaridan turadilar.

Bu usul qo'llanganda o'quvchilar quvnoqlik bilan mavzuni oson o'zlashtiradilar. Hatto bo'sh o'zlashtiradilar.

yugoridagi harakatlarni takrorlaymiz. Birinchi amalni bajaranimizda aynan "yo'q" so'zini aytamiz. Ma'lumki, bosh kelishikda qo'shimcha bo'lmaydi.

Men bu amalyotdan o'z darsindan foydalamanan va barcha ona tili o'qituvchilari va ota-onalarga ham tavsya qilaman. Chunki o'quvchilarimizning bilimli va sog'lom bo'lishlari barchamizning oly maqsadimizdir.

**Minuraxon TOIROVA,
Qo'rg'ontepda tumanidagi
30-IDUMning o'zbek tili
o'qituvchisi**

O'quvchining maktabga moslashishi

o'qituvchi va ota-onasi o'rtasidagi hamkorlikka bog'liq

Bilimlar maskaniga ilk bor qadam qo'yan bolaning maktabga moslashishi, darslarni yaxshi o'zlashtirishi uchun o'qituvchi va ota-onasi qanday yo'l tutishi kerak? Bolaning maktab haqidagi tasavvurlarini boyitib borish uchun nima qilish kerak?

Bu savollarga ota-onasi va o'qituvchining o'zaro ijodiy hamkorligi asosida ijobjiy natijaga erishiladi, deb javob berish mumkin.

